TA’LIMNING IJTIMOIY-MA’NAVIY TARAQQIYOTGA VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIRI

Isaxova Shaxlo Muxtarovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti
Botirov Asadbek
GDPI magistranti

Annotatsiya. Ta’lim jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri. U nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsni har tomonlama shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ta’lim tizimining jamiyat rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Ta’lim orqali insonda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyati kabi sifatlar rivojlanadi, bu esa jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, Ijtimoiy taraqqiyot, Ma’naviy rivojlanish, Inson kapitali, shaxs kamoloti, tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy ong, madaniy taraqqiyot, bilim va ko‘nikmalar, mehnat bozori, ta’lim sifati, iqtisodiy o‘sish, raqobatbardosh kadrlar.

Ta’lim jamiyat taraqqiyotining nafaqat asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki uning ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim tizimi insonni faqat bilim bilan qurollantirish vositasi emas, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy mas’uliyatini izchil shakllantiradigan murakkab ijtimoiy institutdir. Shu bois, ta’limning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotga ta’siri ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega. Avvalo, ta’lim shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlash orqali jamiyatda axloqiy muhitni barqarorlashtiradi. Bilim olish jarayonida inson nafaqat ilmiy faktlarni o‘zlashtiradi, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglay boshlaydi. Natijada, ijtimoiy munosabatlarda ongli ishtirok etuvchi, mas’uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxs shakllanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ta’lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki insonni har tomonlama shakllantiruvchi, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini belgilovchi asosiy vositadir. Ta’lim jamiyatning ma’naviy darajasini yuksaltiradi. Bilimli inson yaxshilik va yomonlikni farqlay oladi, axloqiy mezonlarga amal qiladi, o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his etadi. Natijada jamiyatda halollik, adolat, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Ta’lim insonning ichki dunyosini boyitadi, uning axloqiy qarashlari va qadriyatlarini shakllantiradi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida beriladigan bilimlar orqali shaxsda halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar rivojlanadi. Ayniqsa, tarbiya bilan uyg‘unlashgan ta’lim jarayoni komil insonni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada jamiyatda ma’naviy yetuk, ongli va mas’uliyatli shaxslar soni ortadi. Dars jarayonida o‘qitiladigan fanlar, adabiyotlar, tarixiy misollar va hayotiy voqealar orqali o‘quvchi va talaba yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, burch va mas’uliyat kabi tushunchalarning mohiyatini anglay boshlaydi. Bu esa uning xulq-atvorida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelishiga olib keladi. Ya’ni ta’lim insonni shunchaki bilimli emas, balki ongli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi.

Ta’lim-inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Inson kapitali deganda jamiyat a’zolarining bilim darajasi, kasbiy ko‘nikmalari, sog‘lig‘i, tajribasi va intellektual salohiyati tushuniladi. Shu jihatdan ta’lim ushbu omillarni rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O‘zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi” [1]. Fikrimcha, bugungi

kunda insonning bilim va malakasi, uning qobiliyatlari har qanday jamiyatning farovonligi hamda davlatning iqtisodiy yuksalishida asosiy rol o‘ynayotgani shubhasiz. Shu sababli O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Inson kapitalini oshirish esa innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, yangi texnologiyalarni tatbiq etish, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy biznes shakllarini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

“Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar nafaqat o‘quv jarayonining mazmunini yangilash, balki inson kapitalining rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik hamda iqtisodiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish va ularning samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Ta’lim sifati, ta’limga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar samarasi, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi, shuningdek, ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalari inson kapitalining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik va iqtisodiy mexanizmlarni kompleks tarzda tahlil qilish dolzarb ilmi yamaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda” [2]. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirishda markaziy o‘rin egallaydi. “Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi” [3]. Fikrimcha, ta’limning boshlang‘ich bosqichidan to oliy ta’limgacha bo‘lgan butun siklga sarmoya kiritish nafaqat shaxsning bilim va malakasini oshiradi, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Inson kapitali darajasi va sifatini oshirishda ta’limga investitsiyalar eng muhim hisoblanadi. Ta’limga investitsiyalar inson kapitaliga sarmoya kiritishning asosiy, eng keng tarqalgan va chuqur o‘rganilgan sohasidir. Ta’limga qilingan investitsiyalar odamlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu esa insonlarning ishchi kuchi sifatini yaxshilaydi, ularning yuqori malakali va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’limda berilgan bilimlar va ko‘nikmalar iqtisodiyotda talab qilinadigan sohalarda ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu orqali iqtisodiyotda yuqori samaradorlikka erishish mumkin” [4]. Ta’limga qilingan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirish va ishchi kuchining sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu orqali shaxslarning malakasi, innovatsion salohiyati va iqtisodiy samaradorlik darajasi oshadi, bu esa jamiyat va davlat taraqqiyotini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa
2. Uzoqova Shohida, Ta’lim, tizimida inson kapitalini rivijlantirishning pedagogik va iqtisodiy mexanizmlari, 2026, -B, 47.
3. https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa
4. Xasanova Aziza Ikromovna, Saxatova Muqaddas Tashpo‘latovna, Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati, Theoretical in the formation of pedagogical sciences, -B, 78.
5. Isaxova S. M., Bekmuhamadova S. I. Q. TA’LIMDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY HIMOYASI VA TENGLIK MASALASINING QONUNIY MEXANIZMLARI //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. TSUE Conference 1. – C. 71-73.